

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“O'ZBEKISTON TARIXI” kafedrası

K U R S I S h I

Qosim Shayx azizon

BAJARDI:

3-kurs talabasi

Rajabov Kamoliddin

Navoiy - 2015

QOSIM ShAYX AZIZON

Kirish

1. Qosim Shayx Azizon – Karmana farzandi.
2. Qosim Shayx yodgorlik majmuasi.
3. Qosim Shayx Azizonning tarix silsilasi nasr va nazmda.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati.

Qosim Shayx Azizon – Karmana farzandi

XVI asr ikkinchi yarmida Buxoroning poytaxtga aylanib, gullab-yashnashida mamlakat hukmdori Abdullaxonning (1557-1598) xizmatlari salmoqli bo'lgan bo'lsa, Abdullaxonning xarbiy-siyosiy muvaffaqiyatlarida esa karmanalik mashhur shayx (xazrat qutb ul-avliyo) Qosim Shayx Azizonning hissasi ham beqiyosdir.¹ Qosim Shayx to'g'risidagi ma'lumotlar qo'lyozma asarlardan asarlarga ko'chib, bizning davrimizgacha etib keldi. Shayx to'g'risidagi ma'lumotlar Xofiz Tanish Buxoriyning "Sharafnomayi shoxiy" ("Abdullanoma"), Xasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkir al-axbob", Xazrat Olim Shayx Azizonning "Lamaxot min nafaxot al-quds", Muhammad Tohir Eshon Xorazmiyning "Tazqirat ul-avliyo" ("Tazkirai Tohir Eshon"), Sayid Muhammad Nosiriddinning "Tuhfat az-zoirin" asarlarida uchraydi. Muhammad Tohir Eshon "Tazqirasi" Qosim Shayx to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni beribgina qolmay, shayx ma'naviy silsilasi davomchilari, ya'ni xalifalari haqida ham so'z yuritadi. Asar xijriy 1159-60 melodiy 1764-47 yillarda yozilgan bo'lib, qo'lyozma nusxalari ayni paytda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.² Asarda Qosim Shayx faoliyatiga keng o'rin berilgan hamda boshqa tarixiy manbalarda uchramaydigan muhim ma'lumotlar bor.

Xazrat qutb ul-avliyo Qosim Shayx Azizon taxminan XVI asr boshlarida Karmanada tavallud topdi. U tasavvuf tariqatining jaxriya (zoxiriy zikr) suluqiga mansub bo'lib, ma'naviy-ruhiy silsilasi Xo'ja Ahmad Yassaviyga bog'lanadi. Qosim Shayx Xo'ja Ahmad Yassaviydan boshlanadigan jaxriya silsilasida o'n uchinchi xalqada turadi: Shayx Yoqub Yusuf Xamadoniy, sulton ul-orifin Xo'ja Ahmad Yassaviy, Hakim Ota, xazrat Zangiota, xazrat Sayid Ato, Xazrat Sadr Ato, Xazrat Elomon Ato, Shayx Alishayx, Mavdud Shayx, Xodim Shayx, Shayx Jamolliddin, Shayx Xudoydod, Xo'ja Mulloyi Nuriy, Qosim Shayx.³

¹ Қаранг: Х.Тўраев. Касым шеих в политический жизни Мавераннахра середины XVI в. – Тезисы докладов и сообщений научной конференции «Бартольдские чтения-93» Москва, 1993, с. 41-42.

² Мухаммад Тоҳир Эшон, "Тазқират ул-авлиё". ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёмаси, инв. № 7017.

³ Қосим Шайх маънавий-руҳий силсиласи Ўзбекистон Марказий давлат архивида сақланаётган "Шажар" асосланди. Қаранг: Ўзбекистон Марказий давлат архиви ф.и – 323, оп.2, инв. 90.

Qosim Shayxning yirik shayx darajasiga etishiga Shayx Xudoydodning ta'siri katta bo'ldi. Shayx Xudoydod Valiy XVI asr 30-yillarigacha jaxriya sulukining yirik namoyondasi sifatida faoliyat ko'rsatdi. Muhammad – Tohir Eshon “Tazqirasida” qayd etilishicha,⁴ Shayx Xudoydodning otasi juda kambag'al odam bo'lib, kasbi chuponlik bo'lgan. Xotinini homila tulg'og'i tutib, ya'ni Shayx Xudoydod tug'ilayotganda chirog' yog'i topilmay qolibdi. Lekin nogoh g'oybdan yongan chirog' paydo bo'lib qirq kechayu-qirq kunduz ravshanlik bo'libdi. Shayx Xudoydod tug'ilayotgan paytda sodir bo'lgan bu karomat sirlari Shayx Xudoydodning o'ziga ham yuqqan ekan, Xazrat Shayx Xudoydod avlodlaridan bo'lgan Shayx Xo'ja Fuzayl (XVIII asr) Shayx Xudoydod to'g'risida quyidagi to'rtlikni bitgan:

Ey, xudoydod, ey Xudoydod
Xalq qatida sen kutarding yaxshi ot
Xalq degandek bo'lmasang,
Tangri qoshida na uyot, na uyot.

Karmanada tug'ilgan Shayx Xudoydod samarqand yaqinidagi Gazira qishlog'i (bugungi Jomboy tumani)da yashab, har safar Buxoroga kelganida Juybor shayxlari Bilan suhbatda bo'lgan. Buxoroga ketayotib, u Karmanada ham to'xtab, shahar buzrukvorlari bilan muloqotda bo'lardi. Bu davrda hali yosh bo'lgan Qosim Shayx ham u suhbatlar ishtirokchisi bo'lgan, Shayx xudoydod zikri samo'laridan qatnashgan. Shayxning pand nasihatlarini, tasavvuf nazariyasiga oid va'zlarini eshitgan va ularga rioya qilgan.

Shayx Xudoydod vafotidan so'ng (1532), Qosim Shayx jaxriya sulukning etakchi shayxlaridan biriga aylanib qoldi, atrofiga muridlar to'plana boshladi. Hatto shayboniy sultonlari ham bundan istisno emas edilar. Buxoro xoni shayboniyzoda Abdullaxonning Qosim Shayxga bo'lgan ixlos-e'tiqodi manbalarda qayd etilgan ma'lumotlardan ma'lum. U, Qosim ShAyxga bo'lgan

⁴ Мухаммад Тоҳир Эшон. Тазкират ул-авлиё. Қўлёзма. ЎзФА Шарқшунослик институти, инв. № 7017, саҳифа 85 а.

e'tiqodi yuzasidan xijriy 966 (melodiy 1558) yilda Karmanada xonaqox barpo etdi. Xonaqox Abdullaxon hokimiyat ttepasiga kelgandan so'ng Buxoro viloyatida qurdirgan birinchi binolardan hisoblanadi. Bino qurilishiga Qosim Shayxning ham mablag'i sarflanganligi va uning o'zi ham tashabbuskor bo'lganligi ehtimoldan holi emas.

Shayboniyzodalardan bir nechasi Qosim Shayx etagini tutishga jazm etgan. Rustam baxodirxon ibn Jonibek sulton shundaylardan bo'lib, u dastlab Mavlono Shamsi (Shayx Xalaf)ga murid tushgan.

Buxorolik tazkiranavis Xasanxo'ja Nisoriyning (1516-1597) "Muzakkir al-axbob" (Do'stlar yodnomasi) asarida ta'kidlanishicha, Rustam baxodirxon saltanat ishlaridan ko'ra suluk yo'lini afzal ko'rib Mavlono Shamsi Xalafga ergashdi. Mavlono Shamsi Xalaf qaerda kavushini echsa, uni qo'liga olib ko'tarib turarkan va bu ishni sharaf deb hisoblarkan.

Mavlono Shamsi Xalaf vafotidan so'ng, Rustam baxodirxon zamon murshidi va davron muktadosi Qosim Shayx Azizonga e'tiqod quyadi.

Xasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkir al-axbob" asarida Qosim Shayx haqida shunday ta'rif bor: "Qosim Shayx Azizon vujudan kechmoq va vujudni darig' tutmaslik nazariyotini chunonam martabasiga etkazganlar. Va hozir odatdan tashqari karomatlar bilan ehtiyoj vodiysiga tashnalar labini poklik zilolidan serob etib, ularning xojatlarini engil etish va darajotlarini ko'tarishda ulug' say'-harakatlar qilmoqdalar, malakiy sifat zotlari bilan tushkunlik vodiysining mahrumlarini tariqat maslaki va haqiqat mamlakatlariga etish sharafini toptirishga sabab bo'lmoqdalar. Ularning oliyshon xonaqoxi "bu erga kirgan kishi omonlik topadi" kalimasi ma'nosidan xabar berib, zamon ahlining tinchlik-omonlik uyiga aylangan. Xonaqoh Karmana shahrining chekkasida joylashgan. "...Bir necha muddat faqir (Xasanxo'ja Nisoriy) ham ularning fayz osor yonlarida bo'lib," Oллоh buyruqlarini ulug' tutmoq va uning yaratganlariga mehribon bo'lmoq" ma'nosini ulardan mushohada etganman. Hozir Sug'd ul

janobning (ya'ni Qosim Shayx Azizonning) poyi-qadamlari sharofatidan boshqa katta yurtlarning ham iftixoriga aylangan”.¹

Manbalarda qayd etilishicha, Qosim Shayx sa'y-harakatlari bilan butun viloyat osoyishta, fuqaro farovon, mamlakat xavfsiz edi. U, xalq manfaatlari himoyachisi sifatida soliq yig'uvchilar tomonidan aholiga tazyiq o'tkazilishiga qarshi bo'lgan. Fuqaroni adolatsizlik, zo'ravonlik, sultonlar o'rtasida o'zaro nizolarning og'ir oqibatlaridan xalos etish uchun butun kuch-g'ayratini sarfladi. Qosim Shayx Azizon to'g'risida “Abdullanoma”dagi quyidagi so'zlar diqqatga sazovor: “Ul Xazratning Kime hosiyat hayollarida butun viloyat jamiyatini birlashtirish, turli tabaqadagi xalqni yaxshi kun kechirishi, mamlakat va mulkning osoyishtaligi, yaxshilarga himmat va iltifot ko'rsatish bo'lgan”.² Qosim Shayx vabo kasaliga yo'liqib xijriy 986 (melodiy 1578) yil Karmanada vafot etdi va o'z xonaqoxi yonida dafn etildi. Xastalikka chalinib yotganda muridlari (darveshlar) shayxni ko'rishga kelgan kishilarni uning ahvoli to'g'risida xabardor qilib turganlar.

Manbalarning guvohlik berishicha, Qosim Shayx vabo kasalidan butun yurtni asrab qolish uchun faqat o'zi va muridlarigina shu kasalga yo'liqishini Ollohdan tilagan va uning tilagi ijobat bo'lgan ekan.

Uning shaxsiy sifatleri yana shu narsa bilan izohlanadiki, vaboga chalinib bemor yotgan chog'ida uni ko'rish uchun kelgan kishilarni kasali yuqmasligi uchun o'ziga yaqinlashtirmagan. Kelganlarga o'z yaqinlari orqali payg'om berib, quyidagilarni bildirgan: “Biz Xudo roziligiga Musharraf bo'lib o'zimizni bu mamlakat (ahli salomatligi) uchun qurbon etdik. Zinhor bu o'lkaga kelmang. Xazrat Rasulot panoh (Muhammad alayhi va as-salam) – u kishiga salavotlar bo'lsin, - aytgan ekanlar: “Vabo kelgan yurtga hech Kim kelmasin va u yurt ahli hech qayoqqa bormasin”.³

¹ Хасанхўжа Нисорий Музакир ал-ахбоб. Форс тилидан Исмоил Бекжон таржимаси. Тошкент, 1993, 35-36 бетлар.

² Хофиз Таниш Бухорий. Абдулланом. Форсчадан С.Мирзаев таржимаси. 2-жилд. Тошкент, 1969, 248 бет.

³ Хафиз-и Таныш Бухари. Шариф – нама-йи шахи. Форсчадан русчага М.А. Салахетдинова таржимаси. 2-кисм. М.: 1989. 283 бет.

Makkaga hajga otlanganlar guruh-guruh bo'lib Qosim Shayx huzuriga keladilar va sog'-salomat borib kelishlarini so'rab undan fотиha olardilar.

Qosim Shayx vafotidan so'ng (1578 y) jaxriya sulukida uning darajasiga ko'tarila oladigan va sulukka bevosita rahnamolik qila oladigan yirik shayx qolmagan bo'lsada, shayx xalifalari uning yo'lini davom ettirdalar. Qosim Shayx ma'naviy-ruhiy silsilasi quyidagicha davom etgan: Pirim Shayx, Olim Shayx Aliobodiy, Mavlono Ibrohim Turikstoniy, Mirzo Ali Turkistoniy, xusayn Shayx Turkistoniy, Abdul Rafe' Turkistoniy, Oxund Mullo-Xo'ja Muhammad Utroriy, Mavlono Muhammad Sharif Buxoriy, Xo'ja Fuzail, Xazrat Muxlisxon Ofarinkentiy. Qosim Shayx muridlari Xorazmda ham bor edi. Shermuhammad Shayx Xorazmiy Xonaqoxiy, Takim Shayx sufiy ma'naviy silsilasi Qosim Shayxga borib ulanadi. Xazrat Qosim Shayx ma'naviy ta'sir doirasi juda keng bo'lib, Turkiston, O'tror, Xorazm ahlini qamrab olgan va bu erlarda ham uning nomini boqiy etuvchi muridlari yashagan.

Sohibi karomat, qutb ul-avliyo Qosim Shayx Azizoning obro' va shuxrati vafotidan keyin ham sunmadi. Kabri ziyoratgohga aylanib qoldi. "Tazqirat ul-avliyo" asarining (XVIII asr) muallifi Muhammad Tohir Eshon Xorazmiy ham uning qabrini ziyorat etgan. Bu to'g'rida uning asarida shunday deyiladi: "Men faqir (Muhammad Tohir) qutbi ziyorati uchun Samarqandga borgan vaqtimda Xazrat Qosim Shayxning qabrini bir necha marta ziyorat etib erdim. Xazrat mahdumi Mavlono Omon Termiziy" atydi: "Xazrat Qosim Shayxning buzrukvorligiga aning qabri sharifi guvohdurkim, ajib qabri xushdir".¹

Buxorolik mashhur xajvchi shoir Mullo Mushfiqiy (1525-1588) Qosim Shayx vafotiga tarix yozgan.

Qosim Shayx shaxsiga va uning xotirasiga buxorolik Juybor shayxlari ham hurmat saqlashgan. Abu Muhammad Tolibning "Matlab at-tolibin" asarida keltirilishicha, Juybor shayxlari xonadoni vakillaridan biri Xo'ja Yusuf (1593-1651) o'z vafotidan bir yil oldin Qosim Shayx Azizon mozorini tavof qilishga borib, mozor boshida aytgan ekanki, Xazrat Rasul alayhi va-sallamning sharif

¹ Мухаммад Тоҳир Эшон. Ўша асар, сах. 86 б.

yoshlari oltmish uchdan o'tmagan. Biz u kishining ummatimiz 9 yoshimiz ul xazratning Sharif yoshlaridan oshmasdan olamdan o'taylik.² Xo'ja Yusuf ellik sakkiz yoshida dorul bakogo yuz tutdi.

El e'zozlagan Shayx

Qosim Shayxning bir o'g'li va bir qizi bo'lib, o'g'li Xo'ja Xurd o'z davrining ma'lumotli kishisi edi. U diniy va dunyoviy ilmlarda takomilga erishishga intilgan, taqvodorlik bobida padari buzrukvorining yo'lini tutgan. Dunyoviy xoyu xavaslardan o'zini tiyib, ko'p vaqtini toat-ibodat bilan o'tkazgan.

Buxorolik Juybor xo'jalari xonadoni Qosim Shayx bilan quda-andachilik iplari orqali bog'langan. Juybor xo'jalarining yirik vakili 9 naqshbandiya tariqati peshvolaridan biri buxorolik shayx Xo'ja Islom (1493-1563)ning nevarasi Xo'ja Tojiddin Xasan Abdullaxon davrida Qosim Shayxning qiziga uylanadi. Manbalar ma'lumotiga ko'ra, Buxoro xoni Abdullaxon Xo'ja Tojiddin Xasan bilan qutb ul-avliyo Qosim Shayx Azizon qizlarining tuyiga shaxsan o'zi boshchilik qilgan. Tuyda Buxoro, Samarqand akobirlari ishtirok etib, ajib anjumanning guvohi bo'lishgan.¹

Qosim Shayx nomi Buxoroda ham mashhur edi. Buxoro shahrida uning nomida go'zar va masjid mavjud. Shayx avlodlari XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda istiqomat qilib merosiy vaqflardan keladigan daromadlar sohibi bo'lganlar.²

Karmanalik Amon Raxmonov o'zining xotira kitobida Marjonxotin qishlog'ida (hozirgi Navbahor tumanining Oxunboboev nomli jamoa

² Абу Муҳаммад Толиб. Матлаб ат-талибин. ЎзФА Шарқшунослик институти, қўлёзма. Инв. № 3757, сах 291 а.

¹ Абу Муҳаммад Толиб. Матлаб ат-толибин. ЎзФА Шарқшунослик институти. Қўлёзма, инв.№ 3757, сах. 125 а.

² Ўзбекистон Марказий давлат архивида (ф.И-323, инв. 1288) Қосим Шайх авлодларига тегишли бўлган ерлар вақф хужжати сакланади. Ҳижрий 1288 (мелодий 1871) йилда тузилган мазкур хужжатда Қосим Шайхнинг Бухородаги авлодлари Мир Солиҳ валад Мир Мўмин, Абдулгафур валад Абдурахмон Хўжа, мулло Хўжа Назар валад Абдуллоларга тегишли Ширбудун мавзесидаги вақфи авлодий ерларининг чегаралари кўрсатилган.

xo'jaligida) xazrat Qosim Shayxning 20 tanobdan ortiqroq ekin ekiladigan erlari bo'lganligi haqida ma'lumot mavjud.³

Qosim Shayx xalifalariga Xiva xonligida ham munosabat yaxshi edi. Buni Xiva xoni Olloquli tomonidan xijriy 1259 (melodiy 1843) yil Qosim Shayx xalifalaridan yigirma olti kishiga doimiy foydalanish uchun er hadya etilganligi tasdiqlaydi.⁴

XVI asr ma'naviy hayotida o'chmas iz qoldirgan Qosim Shayx Azizonning butun faoliyati faqat ezgu va xayrli ishlarni amalga oshirishga xizmat qildi.

Mamlakat hayotida kechayotgan jo'shqin ijtimoiy-siyosiy voqealar davrida mashhur shaxslar yetishib chiqadi. Bu ijtimoiy-tarixiy zaruriyat hisoblanadi. Shunday shaxslardan tarixda muhim o'rin egallaganlari shayxlardir. Buni o'tgan tariximizning sahifalari isbotlab kelgan. Umrining aksariyat qismini Buxoroda o'tkazgan yirik shayx Saifiddin Boxarziyga (1190-1261) Oltin O'rda xoni Berkaxon e'tiqod qo'ygan edi. Buxoroning so'nggi hukmdorlari amirlik tojini kiyishgach, bu shayx mozori ziyoratiga borishgan. Har bir hukmdorning bir necha diniy ustozi-piri bo'lganligi tarixdan ma'lum. Amir Temur Shamsiddin Kulolni, Sayid Barakani va Zayniddin Toibodiyni o'z pirlari deb bilgan va ularni juda hurmat qilgan.

XVI asr ikkinchi yarmida Buxoroning poytaxtga aylanib, gullab-yashnashida mamlakat hukmdori Abdullaxonning (1557-1598) xizmatlari salmoqli bo'lgan bo'lsa, Abdullaxonning harbiy-siyosiy muvaffaqiyatlarida esa karmanalik mashhur shayx hazrat qutb ul-avliyo Qosim Shayx Azizonning hissasi ham beqiyosdir¹. Qosim Shayx to'g'risidagi ma'lumotlar qo'lyozma asarlardan asarlarga ko'chib, bizning davrimizgacha yetib keldi. Shayx to'g'risidagi ma'lumotlar Hofiz Tanish Buxoriyning «Sharafnomayi shoxiy» ("Abdullanoma"), Xasanxo'ja Nisoriyning «Mo'zakkir al-axbob», Hazrat Olim Shayx Azizonning «Lamaxot min nafaxot al-kuds», Muhammad Toxir eshon

³ Рахмонов А. Авлодлар манзили. Кармана, 1996, 7-бет.

⁴ Ўзбекистон Марказий давлат архиви, ф-и 323, инв. 538.

¹ Qarang : X.Turaev . Kasium sheix v politicheskoy jizni Maverannaxra serediniu XVI v. – Tezisiu dokladov i soobSheniý nauchnoy konferencii «Bartol'dovskie chteniya-93» Moskva , 1993, s. 41-42

Xorazmiyning «Tazkirat ul-avliyo» ("Tazkirai Toxir eshon"), Sayid Muhammad Nosiriddinning «Tuxfat az-zoirin» asarlarida uchraydi. Muhammad Toxir eshon «Tazkirasi» Qosim Shayx to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni beribgina qolmay, shayx ma'naviy silsilasi davomchilari, ya'ni xalifalari haqida ham so'z yuritadi. Asar hijriy 1159-60 melodiy 1746-47 yillarda yozilgan bo'lib, qo'lyozma nusxalari ayni paytda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.² Unda Qosim Shayx faoliyatiga keng o'rin berilgan hamda boshqa tarixiy manbalarda uchramaydigan muhim ma'lumotlar bor.

Hazrat qutb ul-avliyo Qosim Shayx Azizon taxminan XVI asr boshlarida Karmanada tavallud topdi. Bu zotning tug'ilgan yili biror bir manbada aniq ko'rsatilmagan, shu sabab bu masala faqat taxminlarga ko'rilgan. U tasavvuf tariqatining jaxriya (zoxiriy zikr) sulukiga mansub bo'lib, ma'naviy-ruhiy silsilasi Xo'ja Axmad Yassaviyga bog'lanadi. Qosim Shayx Xo'ja Axmad Yassaviydan boshlanadigan jaxriya silsilasida o'n uchinchi xalqada turadi: Shayx Yoqub Yusuf Hamadoniy, sulton ul-orifin Xo'ja Axmad Yassaviy, Hakim Ota, Hazrat Zangiota, hazrat Sayid Ato, Hazrat Sadr Ato, Hazrat elomon Ato, Shayx Alishayx, Mavdud Shayx, Xodim Shayx, Shayx Jamollidin, Shayx Xudoydod, Xo'ja Mulloyi Nuriy, Qosim Shayx.¹ Qosim Shayxning yirik shayx darajasiga yetishiga Shayx Xudoydodning ta'siri katta bo'ldi. Shayx Xudoydod Valiy XVI asr 30-yillarigacha jaxriya sulukining yirik namoyondasi sifatida faoliyat ko'rsatdi. Muhammad-Toxir eshon «Tazkirasida» qayd etilishicha,² Shayx Xudoydodning otasi juda kambag'al odam bo'lib, kasbi cho'ponlik bo'lgan. Xotinini homila to'lg'og'i tutib, ya'ni Shayx Xudoydod tug'ilayotganda chiroq yog'i topilmay qolibdi. Lekin nogoh g'oyibdan yongan chiroq paydo bo'lib qirq kechayu-qirq kundo'z ravshanlik bo'libdi. Shayx Xudoydod tug'ilayotgan paytda sodir bo'lgan bu karomat sirlari Shayx Xudoydodning o'ziga ham yuqqan ekan, Hazrat Shayx Xudoydod avlodlaridan bo'lgan Shayx

² Muxammad Toxir eshon, «Tazkirat ul-avliyo». Uz FA Sharqshunoslik instituti kulyozmasi, inv. № 7017

¹ Qosim Shayx ma'naviy-ruhiy silsilasi O'zbekiston Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan «Shajari» asariga asoslandi. Qarang: O'zbekiston Markaziy davlat arxivi f.i- 323, op.2, inv.90

² Muxammad Toxir eshon. Tazkirat ul-avliyo. Qo'lyozma. O'zFA Sharqshunoslik instituti, inv. № 7017, sahifa 85 a.

Xo'ja Fo'zayl (XVIII asr) Shayx Xudoydod to'g'risida quyidagi to'rtlikni bitgan:

Ey, Xudoydod, ey Xudoydod
Xaqiqatda sen kutarding yaxshi ot
Xalq degandek bo'lmasang,
Tangri qoshida na uyot, na uyot.

Karmanada tug'ilgan Shayx Xudoydod Samarqand yaqinidagi G'azira qishlog'i (bugungi Jomboy tumani)da yashab, har safar Buxoroga kelganida Jo'ybor shayxlari bilan suhbatda bo'lgan. Buxoroga ketayotib, u Karmanada ham to'xtab, shahar bo'zrukvorlari bilan muloqotda bo'lardi. Bu davrda hali yosh bo'lgan Qosim Shayx ham u suhbatlar ishtirokchisi bo'lgan, Shayx Xudoydod zikri samo'larida qatnashgan. Shayxning pand nasihatlarini, tasavvuf nazariyasiga oid va'zlarini eshitgan va ularga rioya qilgan.

Shayx Xudoydod vafotidan so'ng (1532), Qosim Shayx jaxriya sulukining yetakchi shayxlaridan biriga aylanib qoldi, atrofiga muridlar to'plana boshladi. Hatto shayboniy sultonlari ham bundan istisno emas edilar. Buxoro xoni shayboniyzoda Abdullaxonning Qosim Shayxga bo'lgan ixlos-e'tiqodi manbalarda qayd etilgan ma'lumotlardan ma'lum. U Qosim Shayxga bo'lgan e'tiqodi yo'zasidan hijriy 966 (melodiy 1558) yilda Karmanada xonaqoh barpo etdi. Xonaqoh Abdullaxon hokimiyat tepasiga kelgandan so'ng Buxoro viloyatida qurdirgan birinchi binolardan hisoblanadi. Bino qurilishiga Qosim Shayxning ham mablag'i sarflanganligi va uning o'zi ham tashabbuskor bo'lganligi ehtimoldan holi emas.

Shayboniyzodalardan bir nechasi Qosim Shayx etagini tutishga jazm etgan. Rustam Baxodirxon ibn Jonibek Sulton shundaylardan bo'lib, u dastlab Mavlono Shamsi (Shayx Xalaf)ga murid tushgan.

Buxorolik tazkiranavis Xasanxuja Nisoriyning (1516-1597) «Mo'zakkir al-axbob» (Dustlar yodnomasi) asarida ta'kidlanishicha, Rustam Baxodirxon

saltanat ishlaridan ko'ra suluk yulini afzal ko'rib Mavlono Shamsi Xalafga ergashadi. Mavlono Shamsi Xalaf qaerda kavushini yechsa, uni qo'liga olib ko'tarib turarkan va bu ishni sharaf deb hisoblarkan.

Mavlono Shamsi Xalaf vafotidan sung, Rustam baxodirxon zamon murshidi va davron muktadosi Qosim Shayx Azizonga e'tiqod qo'yadi.

Xasanxuja Nisoriyning «Mo'zakkir al-axbob» asarida Qosim Shayx xakida shunday ta'rif bor: «Qosim Shayx Azizon vujudan kechmoq va vujudni darig' tutmaslik nazariyotini chunonam martabasiga yetkazganlar. Va hozir odatdan tashqari karomatlar bilan ehtiyoj vodiysiga tashnalar labini poklik zilolidan serob etib, ularning xojatlarini yengil yetish va darajotlarini kutarishda ulug' say'-harakatlar qilmoqdalar, malakiy sifat zotlari bilan tushkunlik vodiysining mahrumlarini tariqat maslaki va haqiqat mamlakatlariga yetish sharafini toptirishga sabab bo'lmoqdalar. Ularning oliyshon xonaqohi «bu erga kirgan kishi omonlik topadi» kalimasi ma'nosidan xabar berib, zamon ahlining tinchlik-omonlik uyiga aylangan. Xonaqoh Karmana shaxrining chekkasida joylashgan. «....Bir necha muddat faqir (Xasanxuja Nisoriy) ham ularning fayz osor yonlarida bo'lib, «Olloh buyruqlarini ulug' tutmoq va uning yaratganlariga mehribon bulmoq» ma'nosini ulardan mushohada etganman. Xozir Sug'd ul janobning (ya'ni Qosim Shayx Azizonning) poyi-qadamlari sharofatidan boshqa katta yurtlarning ham iftixoriga aylangan»¹

Manbalarda qayd etilishicha, Qosim Shayx sa'y-harakatlari bilan butun viloyat osoyishta, fuqaro farovon, mamlakat xavfsiz edi. U, xalq manfaatlari ximoyachisi sifatida solik yiguvchilar tomonidan aholiga tazyik utkazilishiga karshi bo'lgan. Fukaroni adolatsizlik, zo'ravonlik, sultonlar o'rtasida o'zi isyonlarning og'ir oqibatlaridan xalos etish uchun butun kuch-g'ayratini sarfladi. Qosim Shayx Azizon to'g'risida «Abdullanoma»dagi quyidagi so'zlar diqqatga sazovor: «Ul Hazratning kimyo xosiyat xayollarida butun viloyat jamiyatini birlashtirish, turli tabaqadagi xalqni yaxshi kun kechirishi, mamlakat va

¹ Xasanxuja Nisoriy Muzakkir al- axbob. Fors tilidan Ismoil Bekjon tarjimasi . Toshkent , 1993, 35-36 betlar.

mulkning osoyishtaligi, yaxshilarga himmat va iltifot ko'rsatish bo'lgan»² . Qosim Shayx vabo kasaliga yuliqib hijriy 986 (melodiy 1578) yil Karmanada vafot etdi va o'z xonaqoxi yonida dafn etildi. Xastalikka chalinib yotganda muridlari (darveshlar) shayxni ko'rishga kelgan kishilarni uning axvoli to'g'risida xabardor qilib turganlar.

Manbalarning guvoxlik berishicha, Qosim Shayx vabo kasalidan butun yurtni asrab qolish uchun faqat o'zi va muridlarigina shu kasalga yuliqishini Ollohdan tilagan ekan va uning tilagi ijobat bo'lgan ekan.

Uning shaxsiy sifatleri yana shu narsa bilan izohlanadiki, vaboga chalinib bemor yotgan chog'ida uni ko'rish uchun kelgan kishilarni kasali yo'qmasligi uchun o'ziga yaqinlashtirmagan. Kelganlarga o'z yaqinlari orqali paygom berib, quyidagilarni bildirgan: «Biz Xudo roziligiga musharraf bo'lib o'zimizni bu mamlakat (ahli salomatligi) uchun qurbon etdik. Zinhor bu o'lkaga kelmang. Hazrat Rasulot panoh (Muhammad alayxi va as-salam) u kishiga salavotlar bo'lsin, - aytgan ekanlar: «Vabo kelgan yurtga xech kim kelmasin va u yurt ahli xech qayoqqa bormasin».

Makkaga xajga otlanganlar gurux-gurux bo'lib Qosim Shayx xo'zuriga kelardilar va sog'-salomat borib kelishlarini so'rab undan fotixa olardilar.

Qosim Shayx vafotidan sung (1578 y) jaxriya sulukida uning darajasiga ko'tarila oladigan va sulukka bevosita raxnamolik qila oladigan yirik shayx qolmagan bo'lsada, shayx xalifalari uning yulini davom ettirdilar. Qosim Shayx ma'naviy-ruxiy silsilasi quyidagicha davom etgan: Pirim Shayx, Olim Shayx A²liobodiy, Mavlono Ibroxim Turkistoni, Mirzo Ali Turkistoni, Xusayn Shayx Turkistoni, Abdul Rafe` Turkistoni, Oxund Mullo-Xo'ja Muhammad Utrori, Mavlono Muhammad Sharif Buxori, Xo'ja Fo'zail, Hazrat Muxlisxon Ofarinkentiy. Qosim Shayx muridlari Xorazmda ham bor edi. Shermuhammad Shayx Xorazmiy Xonakoxiy, Takim Shayx sufiylari ma'naviy silsilasi Qosim Shayxga borib ulanadi. Hazrat Qosim Shayx ma'naviy ta'sir doirasi juda keng

² Xofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. Forschadan S.Mirzaev tarjimasi. 2-jild .Toshkent, 1969, 248 bet.

1. Xofiz-i Taniush Buxari.Sharaf-name-yi shaxi. Forschadan ruschaga M.A.Salaxetdinova tarjimasi. 2-kism , 1989.283 bet.

bo'lib, Turkiston, Utror, Xorazm ahlini kamrab olgan va bu erlarda ham uning nomini bokiylar etuvchi muridlari yashagan.

Soxibi karomat, kutb ul-avliyo Qosim Shayx Azizonning obru va shuxrati, vafotidan keyin ham sunmadi. Kabri ziyoratgoxga aylanib koldi. «Tazkirat ul-avliyo» asarining (XVIII asr) muallifi Muhammad Toxir eshon Xorazmiy ham uning kabrini ziyorat etgan. Bu tugrida uning asarida shunday deyiladi: «Men faqir (Muhammad Toxir) kutbi ziyorati uchun Samarkandga borgan vaktimda Hazrat Qosim Shayxning kabrini bir necha marta ziyorat etib erdim. Hazrat maxdumi Mavlono Omon Termiziy aytdi: «Hazrat Qosim Shayxning bo'zrukvorligiga aning kabri sharifi guvoxdurkim, ajib kabri xushdir».¹

Buxorolik mashxur xajvchi shoir Mullo Mushfikiy (1525-1588) Qosim Shayx vafotiga tarix yozgan.

Qosim Shayxning bir ugli va bir kizi bo'lib, ugli Xo'ja Xurd o'z davrining ma'lumotli kishisi edi. U diniy va dunyoviy ilmlarda takomilga erishishga intilgan, takvodorlik bobida padari bo'zrukvorining yulini tutgan. Dunyoviy xoyu xavaslardan o'zini tiyib, kup vaktini toat-ibodat bilan utkazgan.

Buxorolik Juybor xujalari xonadoni Qosim Shayx bilan kuda-andachilik iplari orqali boglangan. Juybor xujalarining yirik vakili nakshbandiya tarikati peshvolaridan biri buxorolik shayx Xo'ja Islom (1493-1563)ning nevarasi Xo'ja Tojiddin Xasan Abdullaxon davrida Qosim Shayxning kiziga uylanadi. Manbalar ma'lumotiga ko'ra, Buxoro xoni Abdullaxon Xo'ja Tojiddin Xasan bilan kutb ul-avliyo Qosim Shayx Azizon kizlarining tuyiga shaxsan o'zi boshchilik qilgan. Tuyda Buxoro, Samarkand akobirlari ishtirok etib, ajib anjumanning guvoxi bulishgan².

Qosim Shayx nomi Buxoroda ham mashxur edi. Buxoro shaxrida uning nomida go'zar va masjid mavjud. Shayx avlodlari XIX asr oxiri XX asr

¹ Muxammad Toxir eshon. Usha asar, sax. 86 b

² Abu Muxammad Tolib. Matlab at-tolibin. UzFA Sharkshunoslik instituti. Kulyozma, inv. № 3757, sax. 125 a.

boshlarida Buxoroda istikomat qilib merosiy vakflardan keladigan daromadlar soxibi bo'lganlar³.

Karmanalik Amon Raxmonov o'zining xotira kitobida Marjonxotin kishlogida (hozirgi Navbaxor tumanining Oxunboboev nomli jamoa xujaligida xazrat Qosim Shayxning 20 tanobdan ortikrok ekin eqiladigan erlari bo'lganligi xakida yozadi⁴.

Qosim Shayx xalifalariga Xiva xonligida ham munosabat juda yaxshi edi. Buni Xiva xoni Ollokuli tomonidan hijriy 1259 (melodiy 1843) yil Qosim Shayx xalifalaridan yigirma olti kishiga doimiy foydalanish uchun er xadya etilganligi tasdiklaydi¹.

XVI asr ma'naviy xayotida uchmas iz koldirgan Qosim Shayx Azizonning butun faoliyati faqat ezgu va xayrli ishlarni amalga oshirishga xizmat kildi.

Qosim Shayx Azizon va Juybor xujalaridan Xo'ja Islom (1493-1563), Xo'ja Sa'd (1531-1589) shayboniy sultonlar o'rtasida konli nizolarni tinch yul bilan xal etishga intilib, ularga raxnomolik namunalarini kursatib o'zoro bir-birlariga hamkorlik qilib kelganlar. Tarixiy manbalarni urganish shuni kursatadiki, guyo bu siymolar o'z ma'naviy ta'sir doiralariga kiruvchi viloyatlarni bo'lib olishganday. Toshkent, Turkiston, Samarkand, Miyonkol, Karmana kutb –ul avliyo Qosim Shayx Azizon ma'naviy –ruxoniy ta'siri ostida bulsa, Buxoro, Shaxrisabz, Marv, Chorjuy kutb ul-abror Xo'ja Islom va Xo'ja Sa'd ma'naviy –ruxoniy tizginida bo'lgan.

Yukorida tilga olingan shayxlar XVI asrda yashab , bir-birlariga zamondosh bulishib, tarixiy manbalarda Qosim Shayx bilan Xo'ja Islomning bir-birini yaxshi bilganligi, urtalarida o'zaro extirom va xurmat uta kuchli bo'lganligi qayd etilgan.

³ Uzbekiston Markaziy davlat arxivida (f. I –323, inv. 1288) Kosim Shayx avlodlariga tegishli bulgan erlar vakf xujjati saklanadi. Xijriy 1288 (melodiy 1871) yilda tuzilgan mazkur xujjatda Kosim Shayxning Buxorodagi avlodlari Mir Solix valad Mir Mumin, Abdulgafur valad Abduraxmon Xuja, mullo Xuja Nazar valad Abdullolarga tegishli Shirbudun mavzesidagi vakfi avlodiy erlarining chegaralari kursatilgan.

⁴ Raxmonov A. Avlodlar manzili. Karmana,1996, 7 –bet

¹ Uzbekiston Markaziy davlat arxivi, f-i 323 , inv. 538.

1551 yildagi Karmana sulxi Qosim Shayxning diniy, siyosiy nufo'zini yanada kutardi, shuxratiga shuxrat kushildi. Shu yili u shaxzoda Abdullaxon iltimosiga ko'ra Karmana kurgoni mudofaasini tashkil etishda unga kumaklashish hamda muholif bilan Abdullaxon o'rtasida sulx to'zilishi uchun shaxsan o'zi tashabbus kursatadi. Mo'zokarlarda bevosita ishtirok etadi.

Abdullaxon Buxoro taxtini o'zil –kesil egallagach, 1558 yil Karmanada Qosim Shayx sharafiga xonoko kurdirgani u kishiga bo'lgan extiromining ramzidir. Yoxud shu yili Abdullaxon Shaxrisabz uchun Bobo Sulton bilan olib borgan ko'rashlarida Qosim Shayx kursatmalariga amal kilgan, shuningdek , 1569 yili Bobo sulton va Sa'd sulton hamjixat bo'lib, Abdullaxonga karshi xuruj kilishganda Qosim Shayx aralashuvi bilan urushuvchi tomonlar murosaga kelganligi tarixiy manbalardan ayon.Bularning bari faqat shayboniy sultonlarining emas, balki Juybor xujalarning ham Qosim Shayxga bo'lgan xurmat e'tiborini ziyoda ayladi desak, xato kilmagan bulamiz.

Ma'lumki, moziyda hamma vakt ham shayxlar o'rtasida hamjixatlik bulavermagan, ba'zi ixtiloflar ham bo'lib turgan. Ayniksa, jaxriya va nakshbandiya tarikatlarining ayrim masalalarida bir –biridan farki va o'ziga xosligi bu tarikatlar yulida yuruvchi shayxlarning o'zaro ixtiloflariga, obru talashishlariga sabab bulardi. Bu tugrida xatto makomatlarda ham ma'lumotlar e'tirof etiladi. Lekin Qosim Shayx va Juybor xujalari xonadoni vakillari o'rtasidagi munosabatlarda buning aksini ko'ramiz. Ularning bir–biriga yaqinlashganlarini guvoxi bulamiz. Bu yaqinlashish Juybor xujalarining eng nufo'zli vakili Xo'ja Islom vafotidan sung (1563) nakshbandiya tarikati masnadiga kadam kuygan sevikli farzandi Xo'ja Sa'd tomonidan yanada yakkolrok namoyon buladi va ikki xonadon o'rtasida kuda- andachilik rishtalarining boglanishi bilan mustaxkamlanadi.

Qosim Shayxning bir ugli va bir kizi bo'lib, ugli Xo'ja Xurd o'z davrining ma'lumotli kishisi edi. U diniy va dunyoviy ilimlarda takomilga erishishga intilgan, takvodorlik bobida padari bo'zrukvorining yulini tutgan. Dunyoviy xoyu -xavaslardan o'zini tiyib, kup vaktini toat-ibodat bilan utkazgan.

XVI asrning 70-yillarida Qosim Shayx jaxriya tarikati peshvosi sifatida ancha muridlar orttirgan edi. Xonadoniga o'zok yaqindan kuplab muridlar tashrif buyurib, sadokat bilan xizmatga hoziru nozir turishardi. Buxoro xoni Abdullaxon esa markazlashgan davlat to'zish borasidagi jangovor yurishlarini davom ettirardi. 1578 yil Abdullaxon Zominga kilgan yurishi davrida kup yillik rakibi Bobo sultonni maglubiyatga uchratib, uni Turkistonga kochishga majbur etdi. Toshkentni Darvishxonga xadya kildi. Sungra Bobo sulton izidan Turkistonga yurish qilib, bu viloyatni o'z tasarruf doirasiga kiritdi. 1578 yil sha`bon oyida Abdullaxon Samarkandga kelib, erishgan galabalari sharafiga katta ziyofat berdi. Shundan sung o'z poytaxti Buxoroga kelish taraddudini ko'ra boshladi. Abdullaxonning Buxoroga kelayotganligi xabarini eshitgan Xo'ja Sa'd xon bilan mulokot kilish maksadida Buxorodan Samarkandga o'tlanadi. Boraverishda Karmanada tuxtab, Qosim Shayx bilan diydor ko'rishish va suxbat ko'rish uchun shayx xonaqoxiga yul oladi. Qosim Shayx xujazodani juda katta extirom bilan kutib olib, iltifotlar kursatadi. Suxbat davomida Xo'ja Sa'd o'z ugli Axsan (tulik ismi Xo'ja Tojiddin Xasan 1574-1646) bobida so'z yuritib, uni kelajakda Qosim Shayxning kiziga uylantirmokchi ekanligini bildiradi. Axsan shu davrda turt yoshda edi. Ikki zoti azizning orzu istaklari keyinchalik amalga oshgan bo'lsada, o'z zurriyodlari nikox tuyini ko'rish ikkalasiga ham nasib etmadi. Shu vokeadan salgina utgach Qosim Shayx olamdan utdi (1578), un bir yildan sung esa (1589) Xo'ja Sa'd vafot etdi. Xo'ja Sa'd Chor Bakrda ota – bobolari dafn etilgan kabristonda rixlat topgan. Undan uch ugil yodgor kolgan. Bular Xoja Tojiddin Xasan, Xoja Abduraxim va Abdu Xo'ja.

Qosim Shayx Azizonning kuyovi -Tojiddin Xasan Xo'ja Nosiriddin Sa'dning katta ugli bo'lib, otasi vafotidan keyin tarikat ishlari davomchisi sifatida tanilgan. Ukalari Abduraxim Xoja va Abdu Xojalar ham xon dargoxida xizmatda bo'lganlar. Ikki bo'zrukvorning xayotlik davrlarida kilgan axdlaridan Buxoro xoni Abdullaxon vokif edi. U bu ikki xonadonga bo'lgan yuksak xurmati bois, Xo'ja Sa'dning ugli Xo'ja Tojiddin Xasan bilan Qosim Shayxning

kizi (ismi manbalarda qayd etilmagan) nikox tuylariga shaxsan o'zi boshchilik qilgan.¹ Avval aytib utganimizdek, tuyda Buxoro va Samarkand akobirlari ishtirok etib, ajoyib anjumannig guvoni bulishganlari manbalarda qayd etilgan. 1592 yili bo'lib utgan bu nikox tuyidan bir yil utgach, ya'ni 1593 yil Xo'ja Yusuf tugildi (1593-1653). Tarixiy kitoblarda Tojiddin Xasan to'g'risida ancha ma'lumot bor. Bunga Tojiddin Xasan iktisodiy va ma'naviy darajasining yuqoriligi sabab bo'lgan bulsa, ajab emas. Tojiddin Xasan tabobat, me'morchilik san'ati, ilmi gaybdan xabardor kishi bo'lgan. Abdul Abbas Muhammad Tolib «Matlab ut-tolibin» kitobida katta –katta kishloklarni bunyod etishda ularning tarxini o'zi chizganligini kalamga olgan. Xar bir qurilajak imorat uning tarxi ostida kad tiklaganini qayd qilgan.

Abdullaxon ustoz-piri Qosim Shayxga bo'lgan e'tikodining ramzi sifatida u kishining tiriklik paytida 1558 yilda bu xonaqoxni kurdiradi. Bu bino 15-20 yil ichida ko'rib bitkazilgan. Uning uch tomonining tashki kurinishi kungurador qilib bezatilgan qurilmadan iborat. Binoning umumiy kurinishida baland gumbaz ajralib turadi, uning tashki tomoni kuk gishtchalar bilan koplangan. Binoning balandligi, gumbazi bilan birga 27 metr. Qosim Shayx Azizon majmuasida 300 yildan keyin Amir Olimxon otasi Amir Axadxonga kabr kurdirib, u kishini ham shu erda dafn etdirgan. (Kabr yonida tilovat kilingach, shundan sung Amir Abdulaxadxon kabriga ziyoratga utiladi). Amir Abdulaxadxon (1857-1910) mangit urugidan bo'lgan Amir Mo'zaffarxonning 14 uglining turtinchisidir. U Buxoro amirligida ma'lum iktisodiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarni amalga oshirdi. Uning davrida Buxoroga temir yul, pochta, telegraf alokalari kirib keldi.

U «isloxotchi amir» nomini oldi. Tadbirkorlikni yulga kuydi. Savdo-sotikni keng rivojlantiradi. Chet el sarmoyalari kirib keladi. Amirlikda sanoat uchoklari – paxta tozalash zavodlari quriladi. Amir Axadxon tadbirkor sifatida Kosonda o'ziga ham aloxida xususiy paxta tozalash zavodi kurdirdi. Paxta, korakul savdosi bilan shugullanadi. Amir Abdulaxadxon 1894 yilda amirlik markazini

1 Abu Muxammad Tolib. Matlab at-tolibin. UzFA Sharkshunoslik instituti. Kulyozma, inv. № 3757, sax. 125 a.

Karmanaga kuchirdi va Karmanada bir kator boglar barpo etdi, saroylar kurdirdi. Zarafshon daryosi buyida Abdulaxadxon kurdirgan «Mirza chorbog» bugungi kunda ham saklanib turibdi. Amir Abdulaxadxon chet mamlakatlar bilan ham alokalar urnatgan. U Sankt-Peterburgda masjid, Saudiya Arabistoni, Misr, Suriya, Irok, Krim, va Kavkaz ulkalarida bir kancha rabotlar, mexmonxonalar va saroylar kurdirgan. Abdulaxadxon amirlikda fan, adabiyot, madaniyat va san`atni rivojlantirishga ham aloxida e`tibor karatdi. Uning o`zi ham «Ojiz» taxallusi bilan she`rlar yozdi. Amir Abdulaxadxon 1910 yilda Karmanada (Xozirgi Paxtachi tumanida joylashgan Xayrabod bogida) vafot etadi va shu erda Qosim Shayx xonaqosi yonida dafn etiladi.

Qosim Shayx me`morchilik majmui asrimizning boshidan to mustkillikka erishgan yillarimizgacha juda xaroba axvolda edi. 1920 yil sentyabrida bu joyni vokzaldan turib Frunze boshchiligidagi boskinchilar snaryad bilan gumbazini urib tushirib, katta talofat etkazib, kup kishining ulimiga sababchi bo`lgan. Bu juma namozi payti bo`lgan.

Karmanaliklar 1924 yilda Fayzulla Xo`jaevning kursatmasi bilan usta Xudoykul boshchiligida bu gumbazni tiklashga uringanlar. 1927 yildan boshlab sobik mustabid shurolar to`zumi bu joyda toat-ibodatni man etib, yopib kuyib, mineral ugitlar, gung saklanadigan sklad va avtokolonna garajiga aylantirgan. Sobik ittifok xatto marxumlarni ham tinch kuymagan. Ular 1934 yilda Amir Abdulaxadxon kabrini ochamiz, deganda odamlar kuymagan va nixoyat 1943 yilda ular bu kabrni ochib, undan boylik izlaganlar. 1940-1945 yillarda esa askarlarni joylashtirib, kabr ustiga marmarni toshlarni tashib ketgan.

Mustaqilligimiz sharofati bilan yurtimizdagi boshka tarixiy obidalar singari, ushbu me`morchilik majmuining obodonchiligi va ta`mirlanishiga ham katta e`tibor berilmokda. Viloyatimiz markazi Navoiy shaxriga boraverishda hammaning birinchi nazari tushadigan bu maskan Prezident tashabbusi Navoiy viloyat xokimligi sa`i-xarakati bilan kator tashkilot va muassasalar xomiyligida bugun o`zining kadimiy kiyofasiga ega bo`lib,

obod va gullab yashnagan kadamjo sifatida yo'zlab odamlarning ziyoratgoxiga aylantirildi.

Qosim Shayx Azizonning Buxorolik avlodlari

Qosim Shayx Azizon va Juybor xo'jalaridan Xo'ja Islom (1493-1563), Xo'ja Sa'd (1531-1589) shayboniy sultonlar o'rtasida qonli nizolarni tinch yo'l bilan hal etishga intilib, ularga rahnamolik namunalarini ko'rsatib o'zaro bir-birlariga hamkorlik qilib kelganlar. Tarixiy manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, go'yo bu siymolar o'z ma'naviy ta'sir doiralariga kiruvchi viloyatlarni bo'lib olishganday. Toshkent, Turkiston, samarqand, Minyonkool, Karmana Qosim Shayx Azizon ma'naviy – ruxiy ta'siri ostida bo'lsa, Buxoro, Shaxrisabz, Marv, Chorjuy, Xo'ja Islom va Xo'ja Sa'd ma'naviy – ruhiy tizginida bo'lgan.

Yuqorida tilga olingan shayxlar XVI asrda yashab, bir-birlariga zamondosh bo'lishgan, Tarixiy manbalarda Qosim Shayx bilan Xo'ja Islomning bir birini yaxshi bilganligi, o'rtalarida o'zaro ehtirom va hurmat kuchli bo'lganligi qayd etilgan.

1551 yildagi Karmana sulhi Qosim Shayxning diniy, siyosiy nufuzini yanada ko'tardi, shuhratiga shuxrat qo'shildi. Shu yili u shaxzoda Abdullaxon iltimosiga ko'ra Karmana qo'rg'oni mudofasini tashkil etishda unga ko'maklashish hamda muxolif bilan Abdullaxon o'rtasida sulh tuzilishi uchun shaxsan o'zi tashabbus ko'rsatadi. Muzokaralarda bevosita ishtirok etadi.

Abdullaxon Buxoro taxtini uzil – kesil egallagach, 1558 yil Karmanada Qosim Shayx sharafiga xonaqo qurdirgani u kishiga bo'lgan ehtiromining ramzidir. Yohud shu yili Abdullaxon Shahrisabz uchun Bobo sulton bilan olib borgan kurashlarida Qosim Shayx ko'rsatmalariga amal qilgan, shuningdek, 1569 yili Bobo sulton va Sayyid sulton hamjihat bo'lib, Abdullaxonga qarshi

xuruj qilishganda Qosim Shayx aralashuvi bilan urushuvchi tomonlar murosaga kelganligi tarixiy manbalardan ayon. Bularning bari faqat shayboniy sultonlarning emas, balki Juybor xo'jalarning ham Qosim Shayxga bo'lgan hurmat e'tiborini ziyoda ayladi desak, hato qilmagan bo'lamiz.

Tariqat amallarining ijrosi borasida ayrim tafovut va o'ziga xos tartib qoidalarining mavjudligi tariqat yo'lida yuruvchi shayxlarning o'zaro ixtiloflariga, obro' talashishlariga sabab bo'lardi. Bu to'g'rida hatto maqomatlarda ham ma'lumotlar qayd etiladi. Lekin Qosim Shayx va Juybor xo'jalari xonadoni vakillari o'rtasidagi munosabatlarda buning aksini ko'ramiz. Ularning bir-biriga yaqinligiga guvoh bo'lamiz. Bu yaqinlashish Juybor xo'jalarining eng nufuzli vakili Xo'ja Islom vafotidan so'ng (1563) naqshbandiya tariqati masnadiga qadam quygan sevikli farzandi Xo'ja sa'd tomonidan yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi va ikki xonadon o'rtasida quda-andachilik rishtalarining bog'lanishi bilan mustahkamlanadi.

Qosim Shayxning bir o'g'li va bir qizi bo'lib, o'g'li Xo'ja Xurd o'z davrining ma'lumotli kishisi edi. U diniy va dunyoviy ilmlarda takomilga erishishga intilgan. Taqvodorlik bobida padari buzrukvorining yo'lini tutgan. Dunyoviy xoyu-xavaslardan o'zini tiyib, ko'p vaqtini toat ibodat bilan o'tkazgan.

XVI asrning 70-yillarida Qosim Shayx jaxriya tariqati peshvosi sifatida ancha muridlar ortirgan edi. Xonadoniga uzoq yaqindan ko'plab muridlar tashrif buyurib, sadoqat bilan xizmatga xoziru nozir turishardi. Buxoro xoni Abdullaxon esa markazlashgan davlat tuzish borasidagi jangovor yurishlarini davom ettirardi. 1578 yil Abdullaxon Zominga qilgan yurishi davrida ko'p yillik raqibi Bobo sultonni mag'lubiyatga uchratib, uni Turkistonga qochishga majbur etdi. Toshkentni Darvishxonga hadya qildi. So'ngra Bobo sulton izidan Turkistonga yurish qilib, bu viloyatni o'z tasarruf doirasiga kiritdi. 1578 yil sha'bon oyida Abdullaxon Samarqandga kelib, erishgan g'alabalari sharafiga katta ziyofat berdi. Shundan so'ng o'z poytaxti Buxoroga kelish taraddudini ko'ra boshladi. Abdullaxonning Buxoroga kelayotganligi xabarini etishgan

Xo'ja Sa'd xon bilan muloqot qilish maqsadida Buxorodan Samarqandga o'tlanadi. Boraverishda karmanada to'xtab, Qosim Shayx bilan diydor kurishish va suhbat qurish uchun shayx xonaqoxiga yo'l oladi. Qosim Shayx xo'jazodani juda katta ehtirom bilan kutib olib, iltifotlar ko'rsatadi. Suhbat davomida Xo'ja Sa'd o'z o'g'li Axsan (to'liq ismi Xo'ja Tojiddin Xasan 1574-1646) bobida so'z yuritib, uni kelajakda Qosim Shayxning qiziga uylantirmoqchi ekanligini bildiradi. Axsan shu davrda to'rt yoshda edi. Ikki zoti azizning orzu istaklari keyinchalik amalga oshgan bo'lsada, o'z zurriyotlari nikoh tuyini qurish ikkalasiga ham nasib etmadi. Shu voqeadan salgina o'tgach Qosim Shayx olamdan o'tdi. (1578), o'n bir yildan so'ng esa (1589) Xo'ja Sa'd vafot etdi. Xo'ja Sa'd Chor Bakrda ota-bobolari dafn etilgan qabristonda rixlat topgan. Undan uch o'g'il yodgor qolgan. Bular Xoja Tojiddin Xasan, Xoja Abduraxim va Abdi Xo'ja.

Qosim Shayx Azizonning kuyovi – Tojiddin Xasan Xo'ja Nosiriddin Sa'dning katta o'g'li bo'lib, otasi vafotidan keyin tariqat ishlari davomchisi sifatida tanilgan. Ukalari Abdurahim Xo'ja va Abdi Xo'ja ham xon darborida xizmatda bo'lganlar. Ikki buzrukvorning hayotlik davrlarida qilgan axdlaridan Buxoro xoni Abdullaxon voqif edi. U bu ikki xonadonga bo'lgan yuksak hurmati bois, Xo'ja Sa'dning o'g'li Xo'ja Tojiddin Xasan bilan Qosim Shayxning qizi (ismi manbalarda qayd etilmagan) nikoh tuylariga shaxsan o'zi boshchilik qilgan.¹ Avval aytib o'tganimizdek, tuyda Buxoro va Samarqand akobirlari ishtirok etib, ajoyib anjumanning guvohi bo'lishgani manbalarda darj etilgan. 1592 yili bo'lib o'tgan bu nikoh to'yidan bir yil o'tgach, ya'ni 1593 yil Xo'ja Yusuf tug'ildi (1593-1651).

Ota tomonida Xo'ja Sa'dning, ona tarafdan Qosim Shayxning nevarasi hisoblangan Xo'ja Yusufga ham bu ulug' zotlardagi yaxshi hislatlar yuqqan edi. Binobarin u tariqatni mahkam tutishi bilan birga, o'z davrining ma'rifatli kishilaridan edi. Xo'ja Yusuf xusnixatni Mir Solix kotibdan, qur'on tilovatini

¹ Абу Мухаммад Толиб. Матлаб ат-толибин. ЎЗФА Шарқшунослик институти. Қўлёзма, инв. № 3757, сах.125 а.

xofiz Tursun Muhammad va xofiz Do'stmuhammaddan o'rgandi. Xo'jazoda mukammal husnihatga ega bo'lishi bilan birga Qur'onni juda xush ovozda kiroat qilgan va Kalomulloning ma'nosiga to'la tushungan. Hattot sifatida Qur'oni karimning bir necha nusxalarini qayta kuchirganligi tarixiy manbalarda ko'rsatilgan.

“Matlab at-tolibin” asari muallifi Muhammad Tolibning yozishicha, Xo'ja Yusuf chiroyli she'rlar ham bitgan. U “Ishratiy” taxallusida she'rlar yozgan. Uning “Biguzasht» (“O'tdi”) radifli she'rlaridan bir namunani keltiramiz.

Fursat vaqti gul, fasli xazonam biguzasht,
Chashm pushida kushodam, ki baxoram biguzasht.
Ba murodi dili xud xech naqardam kore
Umr dar fikri murodi digaronam biguzasht.
Xurdam tiri nigohe zi kamonabrue,
Ki ba dil omadu jo kard, zi jonam biguzasht.
Ba dilam novaki nozi tu ajab joy grift,
Ba gul tegi tu chun obi ravonam biguzasht
Ishratiy, umr chu bark ba nazar jilva namud,
Mann nadonam Ki chy vaqt omad, onam biguzasht.

(Xazon faslim o'tganda, gul mavsumi etishdi,
g'ofil ko'zlarim ochdim, baxorim ham o'tibdir.
Ko'nglim murodi uchun u lishni ro'yobga chiqaraolmadim,
Umrin esa boshqa murodlarim fikrida o'tdi.
Qoshlari yo nigohidan jismimga tegdi tig'lar,
Kim ko'ngigna yo'l topdi-yu, jon-jonimdan o'tdi.
Yuragimdan nozining pakonlari xush joy tutmishlar,
Kim gulga ham tig'ing obiravondek tuyulibdur.
Ey Ishratiy, umr ham lahzalik chaqmoqdek yuz ochibdur,
Men esa bilolmasmen qaysi damlarda o'l-da o'tdi.)

Xo'ja Yusufga otasi Xo'ja Tojiddin Xasandan katta meros qoldi. Shuningdek, uning mulki Buxoro xonlari Imomqulixon (1611-1642), Nodir Muhammadxon (1642-1645), Abdulazizxon (1645-1680) tomonidan qilingan exsonlar hisobiga muntazam ortib bordi.

Imomqulixon bir bor Samarqand taraflariga shikorga borganda Xo'ja Yusufni ham o'ziga hamroh qilib, qaytishda ayrim qishloqlarni syurg'ol unga hadya etadi. Boshqa bir misol. Qosim Shayxning ikkinchi qizi Xo'ja Miyonkoliyning o'g'ligi turmushga chiqqan bo'lib, Miyonkolda yashagan. Xo'ja Yusufning undagi tug'ilgan xolavachchasi vafot etgach, unga tegishli syurg'ol va xonaqoxning avlodiy vaqfidan keladigan barcha daromad Imomqulixon farmoni bilan Xo'ja Yusuf ixtiyoriga o'tkaziladi. Shu bilan birga, Xo'ja Yusuf o'z bobosi Qosim Shayx xonaqosi mulkdori va vaqf daromadi sohibiga ham aylanadi.

Masalaning yana bir muhim jihati: Xo'ja Yusuf 29 yoshga to'lganda otasi Xo'ja Tojiddin Xasan uni Qosim Shayx masjidi o'rinbosari etib tayinlaydi. Demak, Xo'ja bobosi Qosim Shayx yo'lidan borib jaxriya tariqatini tutgan.

Xo'ja Yusuf (1593-1651) Abu muhammad Tolibning "Matlab at-tolibin" kitobida keltirilishicha, vafotidan bir yil oldin Qosim Shayx Azizon mozorini tavor qilishga borib, mozor boshida aytgan ekanki, "Xazrat Rasululoh alayxi va sallamning Sharif yoshlari oltmish uchdan o'tmagan. Biz u zotning ummatimiz, yoshimiz ul zotning Sharif yoshlaridan oshmasdan olamdan o'taylik". Xo'ja Yusuf, o'zi niyat qilganidek, ellik sakkiz yoshida dorilbakoga rixlat qildi.

Xullas, ikki xonadonning ma'naviy ruxiy yaqinlashuvi va ular o'rtasidagi qarindoshchilik iplari bog'lanishi ikki tariqat – jaxriya va naqshbandiya tariqati asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qilib kelgan.

Qosim Shayx nomi Buxoroda ham mashhur edi. Buxoro shahrida uning nomida guzar va masjid mavjud. Bu hozirgi (Taki Zargaron atrofidagi ko'chalardan biridir). Shayx avlodlari XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda istiqomat qilib merosiy vaqflardan keladigan daromadlar sohibi bo'lishgan.

Karmana Marjonxotin qishlog'ida (hozirgi Navbahor tumani Oxunboboev shirkat xo'jaligida) xazrat Qosim Shayxning 20 tanobdan ortiqroq ekin ekiladigan erlari bo'lganligi ham manbalarda qayd etilgan.¹

Qosim Shayx xalifalariga Xiva xonligida ham munosabat juda yaxshi edi. Buni Xiva xoni Olloqulixon tomonidan xijriy 1259 (milodiy 1843) yili Qosim Shayx xalifalaridan 26 kishiga doimiy foydalanish uchun er xadiya etilgani ham tasdiqlaydi.²

O'zbekiston Markaziy davlat arxivida (f.i.-223, inv. 1288) Qosim Shayx avlodlariga tegishli bo'lgan erlar vaqf hujjati saqlanadi. Xidriy 1288 milodiy 1871 yilda tuzilgan mazkur hujjatda Qosim Shayxning buxorodagi avlodlari Mir Solix valadi Mir Mo'min, Abdulag'affor valadi Abdullalarga tegishli Shirbudun mavzeidagi vaqfi avlodiy erlarining chegaralari ko'rsatilgan.

XVI asr ma'naviy hayotida o'chmas iz qoldirgan Qosim Shayx azizonning butun faoliyati faqat ezgu va xayrli ishlarni amalga oshirishga sarflandi.

Qosimshayx xonaqoxi to'g'risida.

Shu davr mahsuli bo'lgan binolardan biri Abdullaxon ustoziga – piriga atab qurdirgan bino Qosim Shayx Azizon xonaqosidir.

Abdullaxon ustoz-piri qosim Shayxga bo'lgan e'tiqodining ramzi sifatida u kishining tiriklik paytida 1558 yilda bu xonaqoxni qurdiradi. Bu bino 15-20 yil ichida ko'rib bitkazilgan. Uning uch tomonining tashqi ko'rinishi kungurador qilib bezatilgan ko'rilmadan iborat. Binoning umumiy ko'rinishida baland gumbaz ajralib turadi. Uning tashqi tomoni ko'k g'ishtchalar bilan qoplangan. Binoning balandligi, gumbazi bilan birga 27 metr.

¹ Рахмонов А. Авлодлар манзили. Кармана, 1966, 7-б.

² Ўзбекистон Марказий давлат архиви, ф-и 323, инв. 538.

Qosim Shayx Azizon majmuasida 300 yildan keyin Amir olimxon otasi Amir Axadxonga qabr qurdirib, u kishini ham shu erda dafn etdirgan. (Qabr yonida tilovat qilingach, Amir Abdulaxadxon qabriga ziyoratga o'tiladi).

Qosim Shayx me'morchilik majmui asrimizning boshidan to mustaqillikka erishgan yillarimizgacha juda xaroba ahvolda edi. 1920 yil sentyabrida bu joyni vokzaldan turib Frunze boshchiligidagi bosqinchilar snaryad bilan gumbazini urib tushirib, katta talofat etkazib, ko'p kishining o'limiga sababchi bo'lgan. Bu juma namozi payti bo'lgan.

Karmanaliklar 1924 yilda Fayzulla Xo'jaevning ko'rsatmasi bilan ustma Xudoyqul boshchiliida bu gumbazni tiklashga o'ringanlar.

1927 yildan boshlab sobiq mustabid shurolar tuzumi bu joyda toat-ibodatni man etib, uni mineral o'g'itlar, go'ng saqlanadigan sklad va avtokolonna garajiga aylantirgan.

Sho'ro davrida Amir Abdulahadxon qabrini ochishga bir necha bor urinish bo'ldi. Jumladan 1934 yil. Keskin aholi noroziligi buning oldini oldi. Nihoyat 1943 yil qabr ochilib. Undan boylik izlashdi.

1940-1945 yillarda esa askarlar joylashtirib, qabr ustidagi marmar toshlar tashib ketildi.

Mustaqilligimiz sharofati bilan yurtimizdagi boshqa tarixiy obidalar singari, ushbu me'morchilik majmuining obodonchiligi va ta'mirlanishiga ham katta e'tibor berilmoqda.

Viloyatimiz markazi Navoiy shahriga boraverishda borganing nazari tushadigan bu maskan Prezident tashabbusi 9 Navoiy viloyat hokimligi sa'i-harakati va qator tashkilot va muassasalar homiyligida bugun o'zining qadimiy qiyofasiga ega bo'lib, obod va gullab yashnagan qadamjo sifatida yuzlab odamlarning ziyoratgohiga aylantirildi.

Bunyodkorlik – davr talabi

Davlatimiz mustaqilligining o'n yilligi munosabati bilan Qosim Shayx Azizon majmuasini ta'mirlashda katta hajmdagi ish olib borildi.

Bu erda, Xorazm, Samarqand, Shaxrisabzdan kelgan 120 nafar usta ishladi. Qosim Shayx maqbarasi daxmasi ichini oxakli g'isht bilan to'liq ta'mirlandi. Bu ulug' zotning daxmasi yon atrofini asl holatiga keltirish uchun ko'k rangli marmar bilan, asos qismini esa oxakli tosh bilan bezadik.

Gumbaz maqbarasidagi baraban qismi grek uslubida ishlangan. Gumbazning yuqori va pastki bo'limi arab yozuvidagi Qur'oni Karimdan olingan oyatlari o'rnida qayta tiklandi.

Ta'mirlash jarayonida Qosim Shayx xonaqosining ichiga qulagan tuproq kovlanib olindi. Yodgorliklar sobiq tuzum davrida oyoq osti qilindi. Endilikda Qosim Shayx xonaqosi va hujralari ganchkorlik uslubida qayta tiklandi. Bu ishni Navoiy viloyat "Me'mor" korxonasining bosh ustasi San'at Kuyliev boshliq ustalar bajardi.

Tamirlash ishiga buxoro shaxridagi yodgorliklarni ilmiy ta'mirlash boshqarmasi hisobidan 26 usta kelib, ular to'rt brigadaga bo'linib, katta ishlarni bajardilar.

O'zbekiston xalq ustasi Axmad Boymurodov Axadxon maqbarasi old tomonini to'liq shimol tomonini hamda emirilgan qismini qayta tiklashga bosh-qosh bo'ldi. Moxir usta Akbar Obiddinov esa daxmani marmar bilan bezash ishlarini bajardi. Usta Karim Tolipov daxmaning janub tomonidagi devorini (emirilish arafasida edi) qayta o'z xolatiga keltirdi. Shuningdek janub qismidagi maqbarani qayta tiklash va yonidagi to'rtta xujrani konservatsiya qilishni usta shogirdlar bilan bajardi. Usta Zarif Fattoev Axadxon daxmasi supasini qayta ta'mirlashni va uning devorlarini zaxdan saqlash ishlarini amalga oshirdi.

Viloyat tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash "Me'mor" ustaxonasining uchastka boshlig'i Istamxon Ochilov Qosim Shayx majmuida olib borilayotgan har bir ishda bosh-qosh bo'ldi.

Ta'mirlash ishlari 2001 yilning sentyabrida boshlandi. Majmuaning devorlari zaxlangan, g'ishtlari nurash arafasida edi. Buning sababi sobiq tuzum davrida maqbaraning old tomoni 25 sm qalinlikda mozayka qilingan ekan.

Majmua poydevoridan 85-90 sm zax tuproq yuqorilab ketgin. Bu ishni niqoblash maqsadida tuproq tekislanib, ustiga g'isht terilgan. Quruvchilar 1 metru 35 sm qalinlikdagi tuproqni olib tashladilar. O'shanda ko'rkam binoning haqiqiy supasi saqlanib qolganligi aniqlandi. O'n ming kubometr tuproq bino atrofidan chiqarildi.

Bundan tashqari majmuani zaxdan saqlash uchun xavo almashtirib turuvchi moslama quyib chiqildi. Bu Qosim Shayx maqbarasi devorlari holatini yaxshi saqlash imkonini berdi.

Shamolning, qor-yomg'irning bosimi majmua og'irligining asosga tushguncha tarqalib ketarkan. Yana bir narsa, majmua bunyod etilganda uning to'rt tomonidagi to'rtta pech olovxona – (kurxona) qurilgan. Ta'mirlash jarayonida bu pechlar loy shuvoq ostidan topildi. Qizig'i shundaki, bu pechlar yoqilganda uning tutuni qayerdan chiqib ketganligini topolmay yoqa ushladik. Havoga quruq gaz chiqib ketar ekan. Shu pechlar evaziga xonaqo devorlari va asosiy devorlari ham qizib, xujralarga namlikni yo'latmagan hamda ularni issiq saqlagan.

Bir gektaga yaqin majmuaning tom qismida yog'och ishlatilmagan. Usti ikki qavat qilib yopilgan bo'lib, orada quyilgan bo'shliq odam yuradigan darajada. Tag'in shunday o'lkan binoning tomiga baraban shaklidagi gumbaz o'rnatilgan. Bu xolat kishi aqlini shoshiradi. Ulug' ajdodlarimizning yuksak bilimli ekanliklaridan guvohlik beradi.

Bag'ri tog'dek butun, qalbi yoniq xalqimizning har kuni boy mazmunga ega. Axir bu tashvishlarimiz, sevinchlarimiz, imkoniyatlarimiz mustaqilligimiz sharofatidandir.¹

¹ Хамдам Эшонкулов. Журналист Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими. ДЎСТЛИК БАЙРОҒИ, 26 октябрь, 2001.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.8. T.: «O`zbekiston», 2000.
2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. T.: «O`zbekiston», 2000
3. Karimov I.A. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga so`z boshi. T.9. T.: «O`zbekiston», 2001.
4. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o`z kuch qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.12. -T.: «O`zbekiston», 2004.
5. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. -T.: «O`zbekiston», 2005. 5-33-betlar.
6. Temurnomai Mavlono Xotifiy. XVII asrda yozilgan qo'lyozma. Asar sharqshunos olim Axmadxon Oblaqulov kutubxonalarida saqlanadi.
7. Valixo`jayev B.N. O`rinboyev B.Bobo Xudoydod Vali. G'G' Guliston, 1993,8-9 son.
8. Bobo Xudoydod Vali. G'azallar va xikmatlar. B. Valixo`jayev, B. O`rinboevlar tomonidan nashrga tayyorlangan. Samarqand, 1993, 44 bet.
9. Inoyatov S., Sohibqiron va temuriylar nazari tushgan diyor. T.: "Sharq", 2002 yil.
10. Hayitova O., Karmanalik buyuk siymolar va muqaddas qadamjolar. T.: "Yangi avlod"nashriyoti, 2004 yil.
11. Hayitova O. Ma`naviyatimiz tarixining yulduzlaridan biri. G'G'Pedagogik mahorat. 2004, 6 son.

12. Inoyatov S., To`rayev H., Saidov M. Qosim Shayx Azizon. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T.: 2000 yil.
13. Xofiz-i Taniush Buxari. Sharaf-name-yi shaxi. Forschadan ruschaga M.A. Salaxetdinova tarjimasi. 2-kism, 1989.
14. Hazrat Azizon Shayx Xudoydod Vali-Yassaviya tariqatining mashxur namoyandasi. ilmiy – anjuman materiallari. Samarqan. 2000,
15. Kattaev K. Shayx Xudoydod Vali tarixi. Samarqand. 1995
16. Muhammad Sharif Husayniy “Hujjat ul- zohirin” . Isomiddin Salohiy, Axmadxon Oblaqulovlar tarjimasi. Zarafshon gazetasi. 1997, 9-12 sentiyabr, 1999, 13-may sonlari.
17. Valixojaev B. Razzoqov S. Hazrati Azizon Shayx Xudoydodi Vali-Yassaviya tariqatining mashhur namoyondasi. Samarqand. 2000,
18. Buxoriy S.S. Azimov S. Hazrat Mavlono Orif Deggaroniy. “Buxoro”, 2004.
19. Zapiskin B.N. Arxitektura Sredney Azii. T. 1948.
20. Pugachenkova G.A. Socialistik mamlakatlar yodgorliklari. T. 1956.
21. Nil`sen V.A. Monumental`naya arxitektura buxarskogo oazisa XI-XII v.v.t. 1956.
22. Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam`oniyning “Al-Ansob” (“Nasabnoma”). Tarjimon va nashrga tayorlovchi Abdulg`afur Razzoq Buxoriy. Buxoro. 1999, 2003yillar.
23. Inoyatova S. Sohibqiron va temuriylar nazari tushgan diyor. T.: “Sharq”, 2002;
24. Inoyatov S. Hayitova O. Karmana tarix ko`zgusida. T.: “Sharq”, 2006.